

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 189 (1788), 2026-yil 12-sentabr, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



TOSHKENTNING IQTISODIY SALOHİYATIDAN UNUMLI FOYDALANIB, IJTIMOİY, MADANIY-MA’RIFIY NUFUZI OSHIRILADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 11-sentabr kuni Toshkent shahridagi O‘zbekiston Milliy muzeyi qurilishi hamda Olmazor tumanidagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Shuningdek, Olmazor tumani misolida aholi daromadlarini oshirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishini o‘tkazdi.



Insonlar doim o‘z yurtining bosh kentiga talpinib yashaydi. Negaki poytaxt shaharlar shunchaki mamlakat markazi emas, ular barcha yo‘nalishda boshqa hududlarga namuna — orzular go‘shasi hisoblanadi. Toshkent shahri ham keyingi yillardagi islohotlar sabab iqtisodiy o‘shish natijasida yirik megapolislarga bo‘ylashib bormoqda.

Prezidentimizning siyosiy irodasi sabab “propiska” bekor qilindi. Aholining birlamchi ehtiyoji bo‘lgan uy-joy bilan ta‘minlash siyosati

tubdan yaxshilandi. Tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlarda mislsiz yutuqlarga erishildi. Umuman olganda, bugungi Toshkentning iqtisodiy-ijtimoiy holati o‘n yil avvalgi poytaxt shahardan yer bilan osmoncha farq qiladi.

Yana bir muhim jihat bor. Iqtisodiy barqarorlik xalqlarni o‘zini anglash, tarixiy haqiqatlarni tiklash imkonini beradi. Shu ma’noda, mamlakatimizdagi bunyodkorlik ishlari faqat iqtisodiy obyekt, yashash va

ma’muriy binolardangina iborat emas. Balki o‘zligimizni anglashimizga xizmat qiladigan ma’rifiy, madaniy koshonalar ham qad rostlamoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2025-yil 1-iyuldagi tegishli qaroriga asosan O‘zbekiston Milliy muzeyining qurilishi belgilab berilgandi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yil avgust oyida mazkur inshoot qurilishiga tamal toshi qo‘ygani haqida bilamiz. Dastlabki manzilda o‘tgan davr mobaynida bajarilgan

ishlar, muzeyning qurilish jarayoni ko‘zdan kechirildi.

Bu yerda zamonaviy bino qad rostlaydi. Uch qavatli asosiy bino va 2 qavatli yer osti qismidan iborat muzeyning me’moriy qiyofasi va mazmun-mohiyati dunyodagi ilg‘or tajribalar asosida bunyod etilmoqda. Loyiha yaponiyalik mashhur me’mor Tadao Ando tomonidan yaratilgan. Ekspozitsiya konsepsiyasini Germaniyaning “Atelier Brückner” tashkiloti tayyorlagan.

Muzey yosh avlodga o‘zligini anglab, milliy g‘urur bilan kamol topishiga xizmat qiladi. Buning uchun me’moriy yechim ham, ijtimoiy zanjir ham yaratilgan. Shu maqsadda muzey maydonining 60 foizi ta’lim va ilmiy faoliyatga ajratiladi. Aholiga yuqori darajada xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga ham alohida e’tibor berilgan. Xususan, oilalar va yoshlarning mazmunli hordiq chiqarishi uchun restoranlar hamda bolalar maydonchalari tashkil etiladi.

Ta’kidlanganidek, Toshkent bugun aholisi tez o‘sib, har bir sohada kengroq qamrovni talab etayotgan katta shaharga aylanib bormoqda. Mazkur madaniy maskan esa bir vaqtning o‘zida 3500 nafargacha tashrif buyuruvchini qabul qila oladi. Bu 3 mingdan ziyod dunyoqarash, shuncha qiziqish degani. Shu ma’noda, 10 mingga yaqin tarixiy va san’at eksponatlari namoyish etilishi qamrovning kengligiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat. Faxr-iftixorimiz ramzi bo‘lgan yangi muzey binosi qurib bitkazilgach, uning atrofidagi Abulqosim madrasasi, Xalqlar do‘stligi saroyi va Milliy bog‘ bilan birga yaxlit me’moriy ansamblni hosil qiladi.

Prezidentimiz muzey hududida olib borilayotgan keng ko‘lamli qurilish-montaj ishlari, obyektlar poydevori va muhandislik infratuzilmasini barpo etish jarayoni bilan tanishdi. Majmua yurtimizning boy tarixi, madaniyati va kelajak itilishlarini namoyon etadigan muhim madaniy maskan bo‘lishi ta’kidlandi. Shu yerning o‘zida mutasaddilarga qurilish ishlarini belgilangan muddatlarda

va yuqori sifat standartlari asosida bajarish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Tashrifning navbatdagi manzili Olmazor tumanidagi “RomPharm NS” dori vositalarini ishlab chiqarish korxonasi bo‘ldi.

Ko‘zlangan marallarga erishishdagi muhim faktor — inson salomatligi. Shu bois, keyingi yillarda yurtimizda sog‘lom turmush tarziga jiddiy e’tibor berilmoqda. Hatto mamlakatimiz rahbarining shaxsan o‘zi aholini ommaviy sport bilan shug‘ullanishga chaqirib, etralabki badantariya va kechki sayrlar uchun keng imkoniyatlar yaratib beryapti. Mazkur tashabbuslar bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash tizimi ham tubdan isloh qilindi. Jumladan, Prezidentimiz 2025-yil 28-yanvarda “Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini imzoladi. Mazkur hujjat sohada ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. “RomPharm NS” dori vositalari ishlab chiqarish korxonasida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar e’tiborga molik.

Masalan, kelgusida korxona ichki bozorni sifatli farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlashga erishishni maqsad qilgan. Buning bilan import o‘rmini bosadigan dori vositalarini ishlab chiqarish hajmi keskin oshadi. Hozirda esa asosan nevrologiya, kardiologiya, metabolik jarayonlar va yallig‘lanishga qarshi yo‘nalishlarda qo‘llaniladigan dori vositalari ishlab chiqariladi.

Korxonaning maydoni 1,7 gektar bo‘lib, unda 150 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Umumiy qiymati 45 million yevroni tashkil etadigan loyihada ishlab chiqarish jarayonining 90 foizi avtomatlashtirilgan. Buning uchun Italiya, Germaniya, Avstriya, AQSH, Shveysariya va Bolgariyadan zamonaviy uskunalar keltirilgan.

Davlatimiz rahbari korxona faoliyati bilan tanishar ekan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan quvvatlarni kengaytirish, ichki bozorni sifatli farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlash muhimligini ta’kidladi. Asosiy maqsad importga

bog‘liqlikni kamaytirish va sohada yangi ish o‘rinlari yaratish ekani qayd etildi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning muhim faktorlaridan biri mahalladoshlar bir-birini taniy boshlagani bo‘ldi. Toshkent kabi katta shaharlarda yon qo‘shnilar ham begonaday yashashi odatiy hol edi. Islohotlar shiddati sabab, avvalo, mahalla faollari, “mahalla yettilligi”gacha bo‘lgan mas’ullar uyma-uy yurishni boshladi. Hokimlarimiz mahallalarga tushib ishlashni o‘rgandi. Muhimi, xalqimiz xohish-irodasi bilan muammolar hal etiladigan tizim yaratildi. Tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, aholi bandligini ta’minlash ustuvor vazifa etib belgilab olindi. Mahallalar obod etilib, 24/7 rejimdagi ko‘chalar tashkil etildi. Shu asosda sayr uchun yo‘laklar, xizmat ko‘rsatish sohasi tubdan yangilandi. Bu, o‘z o‘rnida, ijtimoiy birdamlikka xizmat qila boshladi.

Tashrifning galdagi manzili — Olmazor tumanidagi Qichqiriq mahallasida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari va aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi.

Ushbu mahalla tashkil etilganiga o‘ttiz yildan oshgan. Uning hududida 23 ta ko‘p qavatli uyda 1416 ta xonadon bor. Ularda 5400 dan ziyod aholi yashamoqda. Shunday katta salohiyatga ega mahallada bajarilishi zarur bo‘lgan yumushlar bor edi. Mamlakatimiz yetakchisining tashabbusi bilan bugun ushbu mahalla butunlay yangicha qiyofa kasb etdi.

Prezidentimiz 2024-yil 25-iyun kuni “Mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va qiyofasini tubdan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorini qabul qilgan edi. Mazkur hujjat asosida Qichqiriq mahallasida keng ko‘lamli bunyodkorlik, obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Xususan, “Obod mahalla” davlat dasturi doirasidagi ushbu loyihaga mahalliy byudjetdan 71,4 milliard so‘m ajratildi. Natijada hudud zamonaviy “yashil” shahar muhitiga mos tarzda ekologik mahallaga aylandi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “ROX GROUP” KOMPANIYASI ASOSCHISINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-sentabr kuni Vyetnamning “ROX Group” kompaniyasi asoschisi An Tuan Channi qabul qildi.

O‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish va mamlakatimizda istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

“ROX Group” 1996-yilda tashkil etilgan Vyetnamdagi yetakchi ko‘p tarmoqli investitsiya guruhlaridan biri hisoblanadi.

Kompaniya ko‘chmas mulk, energetika, bank ishi, mehmonxona biznesi va xizmat ko‘rsatish sohaslarida yirik loyihalarni amalga oshiradi.

O‘zbekistondagi ustuvor yo‘nalishlar sifatida zamonaviy shahar va sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energetika,

geologiya, moliya va turizm sohalari belgilandi.

Uchrashuv yakunida kompaniya ishtirokidagi joriy va yangi loyihalarni amalga oshirishni “yo‘l xaritasi” asosida jadallashtirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

O‘ZA

IKKI TOMONLAMA ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan bilan telefon orqali muloqot qildi.

O‘zbekiston—Armaniston munosabatlarini, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohaslarida yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Shu ma’noda, sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha yangi qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish dolzarb ekani alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz mintaqalarini bog‘laydigan logistika va transport yo‘laklarini rivojlantirish orqali o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash muhimligini ta’kidladi.

Prezidentimiz mintaqaviy barqarorlik va ichkil taraqqiyot uchun mustahkam asos bo‘ladigan Tinchlik shartnomasini tez fursatda

imzolash borasidagi sa’y-harakatlarni yuksak baholadi.

Ikki va ko‘p tomonlama, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasidagi tadbirlar rejasini ham ko‘rib chiqildi.

O‘ZA

ISTIQLOLNING TARIXIY IRODASI VA YANGI O‘ZBEKISTON FENOMENI

Mustaqillik haqida gap ketganda, ko‘z oldimizga davlat bayrog‘i ko‘tarilgan tarixiy maydon, yangi Konstitutsiya qabul qilingan sessiya, xalqaro minbarda ilk bor “O‘zbekiston” degan nom yangragan lahzarlar keladi. Bular istiqloqlning buyuk ramzlaridir. Ammo uning eng teran mazmuni oddiy insonning o‘z taqdirini o‘zi belgilashida, ona tilida erkin so‘zlashida, farzandi uchun munosib ta’lim tanlashida, mehnati va tashabbusi bilan farovon hayot qurish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.



Tarixiy nuqtayi nazardan, o‘ttiz besh yil davlat uchun juda qisqa davr. Lekin shu vaqt ichida siyosiy xaritada yangi suveren davlat qaror topishi, milliy institutlar shakllanishi, iqtisodiy tizim o‘zgarishi, xalqning dunyoqarashi va jamiyatning ijtimoiy tarkibi yangilanishi mumkin. O‘zbekiston tajribasi ana shu jarayonlarning murakkab, ba’zan ziddiyatli, ammo uzluksiz harakatini ko‘rsatadi. Shu bois, “Yangi O‘zbekiston fenomeni”ni faqat so‘nggi yillarda qurilgan binolar yoki oshgan raqamlar bilan emas, davlat va inson o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan anglash kerak.

2026-yilda davlat mustaqilligining 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oya asosida nishonlanishi ham istiqloqla muzeyda saqlanadigan tarixiy xotira emas, har kuni

davom etadigan umummilliy mas’uliyat sifatida qarashga chorlaydi. Yagona Vatan turli qarash, millat, avlod va hudud vakillarining umumiyy taqdir oldida hamjihat bo‘lishi demak. Yagona xalq degani farqlarni yo‘qotish emas, ularni bir huquqiy makon va bir fuqarolik hissida uyg‘unlashtirishdir.

Mustaqillikning 35 yilligini munosib nishonlashga bag‘ishlangan Prezidentimiz qarorida istiqloq xalqimiz qat’iy irodasi va ajdodlar jasorati bilan qo‘lga kiritilgan, yangi O‘zbekistonda barpo etishga qaratilgan ishlarimizning asosi bo‘lgan buyuk qadriyat sifatida baholandi. Bu ta’rifda o‘tmish, bugun va kelajak birlashadi: mustaqillik tarixdan kuch oladi, islohotlarda mazmun kasb etadi va kelajak avlodlar oldidagi burchga aylanadi.

2016-yil: taraqqiyot mantig‘ini o‘zgartirgan burilish

2016-yil oxiridan mamlakatda davlat va jamiyat munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish jarayoni boshlandi. “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” tamoyili islohotlarning siyosiy-falsafiy yo‘nalishini belgiladi. Virtual va Xalq qabulxonalari orqali murojaatlar bilan ishlash, rahbarlarning joylarga chiqishi, muammolarni yashimdan muhokama qilish davlat boshqaruvining odatiy uslubini o‘zgartirdi.

2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi besh ustuvor yo‘nalish — davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligi, iqtisodiyotni rivojlantirish, ijtimoiy sado, xavfsizlik va tashqi siyosatni bir dasturda birlashtirdi. Muhimi, strategiya yillik davlat dasturlari, aniq vazifalar va jamoatchilik muhokamasi bilan bog‘landi. Shu tariqa islohotlar alohida qarorlar yig‘indisidan strategik boshqaruv tizimiga o‘ta boshladi.

Yangi bosqichning birinchi vazifasi yillar davomida to‘plangan oddiy, ammo inson hayotini qiyinagan to‘siqlarni bartaraf etish bo‘ldi. Valyuta ayirboshlash, propiska, xorijga chiqish, fuqarolik, davlat xizmatlari, tadbirkorlik ruxsatnomalari, chegaradan o‘tish kabi masalalardagi o‘zgarishlar jamiyatda islohotlarning amaliy mazmunini ko‘rsatdi. Ba’zan katta siyosiy konsepsiya inson uchun pasport olish, bankdan valyuta sotib olish yoki qo‘shni davlatdagi qarindoshini ko‘rish imkonida namoyon bo‘ladi.

Mazkur davrni “islohotlarning birinchi bosqichi” deb atash mumkin: tizimning yopiq qismlarini ochish, eski muammolarni tan olish va inson qadriini davlat siyosati markaziga olib chiqish bosqichi. Ammo ochishning o‘zi yetarli emas. Keyingi vazifa yangi qoidalamni barqaror institutlarga aylantirish, qarorlarning joylarda bir xil ishlashini ta’minlash va mjdoriy o‘shishni sifat bilan mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Davomi 3-betda

Diplomatik muloqotni tashqi ishlar vazirlari darajasidan davlat rahbarlari darajasiga olib chiqish kamdan-kam hollarda shunchaki protokol masalasi bo‘ladi. Odatda bunday qarorlar amaldagi hamkorlik mexanizmlari yuzaga kelayotgan muammolar ko‘lami va murakkabligiga endi mos kelmay qolganda qabul qilinadi.

Aynan shu bois, bo‘ljak “Koreya Respublikasi — Markaziy Osiyo” birinchi sammiti tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarning muhim bosqichini boshlab beradi. Sammiti kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifi bo‘lib o‘tadi.

Davomi 2-betda



Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nurobod mahallasi Sayxunobod tumanining eng chekka hududlaridan. Yurtimiz mustaqilligining 35 yillik shodiyonasi arafasida hududda yangi 50 o‘rinli xususiy maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat yuritga boshladi. Bu mahalla ahli uchun chinakam sovg‘a bo‘ldi. Endi yaqin-atrofdagi bolalar zamonaviy sharoitga ega, innovatsion usullarda mashg‘ulotlar o‘tiladigan yangi bog‘chada ta’lim-tarbiya oladi. Xayrli ish tashabbuskori esa sirdaryolik tadbirkor Zamira Salimova.

Ayolning o‘zi Mirzaobod tumanida istiqomat qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini 2019-yili shu tumanida 25 o‘rinli oilaviy bog‘cha tashkil etishdan boshlagan. Oradan ko‘p o‘tmay, Guliston shahrida ham 35 o‘rinli nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. Bugun uchta bog‘chaga rahbarlik qilib kelyapti. Non va non mahsulotlari ishlab chiqaradigan sexi ham bor. Hududdagi 50 ga yaqin xotin-qizni ish bilan ta’minlagan. Ayol ko‘zga ko‘ringan tadbirkorlardan. Qachonlardir bu ish uning orzusi bo‘lgan. Yurtimizda yaratilgan qulay ishbilanmonlik muhiti, qolaversa, xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoitlar, xususiy biznesga keng yo‘l ochish, barcha sohadagi katta islohotlar — hammasi ayolga kuch va ishonch berdi.

— Bundan o‘n yil oldin oliy ma’lumoti yo‘q, ishsiz, tadbirkorlikni faqat orzu



qiladigan ayol edim, — deydi “Yangi tadbirkor kelajagi” MCHJ rahbari Zamira Salimova. — Hozir esa ko‘p tarmoqli ishbilanmonman, o‘nlab xotin-qizni ish bilan ta’minlayapman. Hatto oliy ma’lumoti bo‘ldim. 2020-yili oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirib, maktabgacha va maktab ta’limi yo‘nalishida o‘qiy boshlaganimda 3 farzandim ham talaba edi. Ular qatori men ham o‘qidim, o‘z ustimda ishlashdan to‘xtamadim. Bular ekan emas, haqiqat. Gapirsa mubolag‘adek tuyulishi mumkin, ammo yurtimizda tadbirkorlar va xotin-qizlarga bunchalik sharoit yaratilmaganida hozirgi natijalarga erishishim amrimahol edi. Qolaversa, tinchlik, barqarorlikda gap katta. Yurti, oilasi notinch ayol muvaffaqiyatga erisholmaydi. Mana shu xotirjamlik uchun shukrona aytaman. Inson qadri va manfaatlari oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan davlat va jamiyatning erkin, tashabbuskor fuqarosi ekanimdan g‘ururlanaman. Bugungi tadbirkor, avvalo, erkin, faqat ishi, rivojlanish haqida o‘zlaydi, muammolar boshini o‘g‘ritmaydi. Tekshiruvlar, soliq yuklamlaridan hayiqmaydi. Davlatimiz rahbari tadbirkorlarni ana shunday muammolardan, qo‘rquvlardan xalos qildi. Bu shunchaki gap emas. Har bir sohada xususiy sektorga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida esa soatlab gapirish mumkin. Oddiy bir tadbirkor sifatida o‘zim ham ularning ko‘pidan foydalanib kelyapman.

Tadbirkor uchun moliyaviy resurs doim zarur. Hatto yirik bizneslarda ham faoliyatni kengaytirish uchun qo‘shimcha moliyaviy ko‘makka ehtiyoj bo‘ladi.

Islohotlar amalda

Bugun biznes vakillari mamlakatimizning eng katta kuchi, davlat esa ishbilanmonlarning asosiy tayanchi bo‘lmoqda. Mana shu o‘zaro ishonch va yakdillik yurt taraqqiyoti, oilalar farovonligini oshirishga xizmat qilyapti.

TEKSHIRUVDAN ISHONCHGA, IMKONIYATDAN NATIJAGA

Tadbirkorlar kutgan IMTIYOZLAR BERILDI



muddatga moratoriy joriy etilganidir. Shu davr davomida kichik biznes egalari asossiz tekshiruvlardan ozod bo‘ladi. Albatta, bu mutlaq daxlsizlik degani emas. Jinoyat ishi doirasidagi, inson sog‘lig‘iga ta’sirini o‘rganish va mehnat qonunchiligiga rioya etilishi bilan bog‘liq, fuqarolar murojaatlari, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplash yoki qaytarish hamda tadbirkorlik subyektni tugatish munosabati bilan o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno.

Biroq boshqa keraksiz tekshiruvlarning bo‘lmashligi tadbirkorga anchagina ekanlik beradi. Qolaversa, bu norma kichik biznes uchun psixologik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Chunki kichik korxona uchun har bir tekshiruv nafaqat vaqt va resurs, balki ishlab chiqarish jarayonining izdan chiqishi, xodimlar e’tiborining asosiy faoliyatdan chalg‘ishi va qo‘shimcha xarajatlarni anglatishi mumkin. Asosiy jihati esa moratoriy shunchaki deklarativ norma bo‘lib qolmasligi uchun mas’uliyat mexanizmi ham belgilangan. Moratoriy davrida kichik tadbirkorlik subyektni qonunga xilof ravishda tekshirish noqonuniy va bunday huquqbuzarlikka yo‘l qo‘yg‘an shaxslar javobgarlikka tortiladi.

Bir necha yil oldin mutasaddilar bilan birga yangi ish boshlagan tadbirkorning faoliyati bilan yaqindan tanishganmiz. O‘shanda biznes egasi o‘z ishi haqida to‘qlinlanib gapirgan. Ketayotganimizda esa mutasaddilarga kun ora korxonasiga tekshiruv kelayotgani, muammo bo‘lmasa-da, vaqti behuda ketayotgani haqida iymانبgina gapirdi. Mutasaddilar esa bu xavfsizlik talabi ekani, tekshiruvlar binoning xavfsizlik vositalari va boshqa jarayonlarni ko‘zdan kechirish uchun ekanini aytdi. Tadbirkor tekshiruvchilar har gal hujjat so‘rab, qayta-qayta kelayotganini yana ta’kidladi. Endi shu kabi huda-behuda tekshiruvlar bo‘lmaydi.

Tadbirkorlarga ijaraga olingan yerni ikkilamchi ijaraga berish imkoniyati ham taqdim etilyapti. Farmon asosida ijaraga olingan, jumladan, aukson orqali olingan yer maydonini boshqa ishbilanmonlarga ikkilamchi ijaraga berish huquqi qo‘llanadi. Tadbirkorlik faoliyati uchun ko‘chmas mulk ijarasida “tijorat ijarasi” alohida toifasi joriy etilib, namunaviy shartnomasi ishlab chiqiladi. Bu masalani, ya’ni tijorat ijarasiga oid huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish taklifini davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda “Korzinka” supermarketlar tarmog‘i asoschisi Zafar Hoshimov ilgari surgandi.

Biznesga yangi nafas

Tadbirkor uchun moliyaviy resurs doim zarur. Hatto yirik bizneslarda ham faoliyatni kengaytirish uchun qo‘shimcha moliyaviy ko‘makka ehtiyoj bo‘ladi. Bu boradagi tizim yurtimizda tobora soddalashtirilib, ishbilanmonlarga qulaylik ortib borayotgani boisi shunda. Farmon esa tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini sezilarli kengaytiradi. Endi biznes egalarga moliyaviy va nomoliyaviy ko‘maklarni bosqichma-bosqich “yagona darcha” tamoyili asosida taqdim etish uchun yagona raqamli platforma joriy etish ko‘zda tutilgan.

Qolaversa, ikki yil davomida soliq va kredit majburiyatlarini vaqtda bajaragan, ish o‘rinlarini saqlagan va sof foyda bilan ishlagan kichik hamda o‘rta biznes subyektlariga 5 milliard



YANGI O‘ZBEKISTON



yuz.uz_news



yuz.uz_news

pishloqchilik tarixi ekspozitsiyasini yo‘lga qo‘yish niyatimiz ham bor. Chunki vohaning sayyohlik imkoniyatlari tobora kengayib boryapti. Sanoat turizmi bu borada o‘ziga xos yo‘nalishga aylanishi mumkin. Qolaversa, Prezidentimizning mazkur farmonida aynan turizm va xizmat ko‘rsatish sohasiga ham katta e’tibor qaratilgan. Endi yangi imtiyoz va imkoniyatlardan samarali foydalanishimiz kerak.

Eksportga yo‘l

Amerikalik olim Piter Drukerning bir gapi bor: “Tadbirkorning o‘ziga xos quroli — innovatsiya. U o‘zgarishlardan yangi imkoniyat yaratish vositasi sifatida foydalanadi”. Bundan o‘n yil oldin shu iqtibos haqida gap borsa, ehtimol, ko‘pchilik tadbirkorlik bilan innovatsiyangan bog‘liqligini tushunmasdi. Ammo bugun hammasi tabiiy — yuzlab innovatsion g‘oyalar startap loyihalariga aylanib, hayotga tatbiq etilyapti. Sohalar shu tarzda zamonaviylashib bormoqda.

Mazkur farmonda innovatsion tadbirkorlik va startaplarni qo‘llab-quvvatlashga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, 2027-2030-yillarda “UzVC” milliy ventchur fondi tomonidan “Kelajak tadbirkori” dasturi amalga oshiriladi, 8 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 30 tagacha startap loyiha ochiq tanlov asosida moliyalashtiriladi. Har bir loyihaga 5 milliard so‘mgacha investitsiya kiritish mumkin. Mablag‘ uch yilga foizsiz va garovsiz, kelgusida korxonadagi ulushga aylantiriladigan qarz yoki SAFE mexanizmi asosida beriladi. Davlat ulushi 49 foizdan oshmasligi, shuningdek, ta’sisчилarga davlat ulushini bozor qiymatida sotib olish huquqining berilishi davlatning startapdagi ishtiroki doimiy nazorat vositasiga aylanib qolmasligi uchun muhim kafolatdir.

Bu yerda prinsipial o‘zgarish bor: davlat an’anaviy “subsidiya beruvchi” rolidan tashqari, innovatsion g‘oyaga investitsiya kirituvchi sherik sifatida ham maydonga chiqmoqda. Qolaversa, farmon xususiy investorlarni ham ushbu jarayonga jalb qilishni nazarda tutadi.

Elektr va gaz uchun to‘lovdagi imtiyozlar ham tadbirkorning aylanna mablag‘iga yengillik beradi. Farmonning aynan mana shu qismi ko‘plab biznes egalariini quvontirdi. Gap shundaki, 2026-yil 1-noyabrden boshlab avtomatlashtirilgan elektr va tabiiy gaz hisobga olish tizimiga ulangan tadbirkorlar uchun oylik iste’mol bo‘yicha oldindan to‘lov miqdori 15 foizgacha tushiriladi. Yangi tartib elektr va gaz hisoblagichlarida masofadan turib o‘chirish va yoqish funksiyasi mavjud bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga tatbiq etiladi. Shuningdek, elektr energiyasi va gaz sarfi bo‘yicha yozma hisobotlarni hududiy ta’minot korxonalariiga topshirishi majburiyati bekor qilinadi. Elektr va gaz ta’minoti shartnomalarini qog‘ozda rasmiylashtirish amaliyoti o‘rniga elektron tuzish tartibiga o‘tiladi.

— Bu o‘zgarishlarning iqtisodiy samarasi faqat qog‘ozbozlikning kamayishida emas, — deydi Andijon viloyatidagi “Xo‘jaobod fayz-m” MCHJ rahbari Lutfullo Abdullayev. — Oldindan to‘lov yukining pasayishi tadbirkorning aylanna mablag‘ini ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki tovar xaridiga yo‘naltirish imkonini oshiradi. Ayniqsa, bizniki singari yirik korxonalarda bunday imtiyozlar yaxshigina seziladi. Korxonamiz 2021-yili klaster tizimiga o‘tganidan beri paxta xomashyosi yetishtirish, paxta tolasini ishlab chiqarish, kalava ip yigirish, trikotaj xom mato to‘qish, tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanib kelmoqda. Yillik ishlab chiqarish quvvati 1650 tadan ortiq tayyor trikotaj mahsuloti bo‘lib, bugun 1300 doimiy ishchi mehnat qilaypti. Yillik eksport qiymatini 12 million dollarga yetkazdiki. Mahsulotimiz Polsha, Turkiya, Rossiya, Italiya, Qozog‘iston bozoriga kirib bormoqda. Tadbirkor uchun ichki talabdan tashqari, xorij bozoriga chiqish ko‘proq imkoniyat yaratadi. Ammo bu oson jarayon emas. Mahsulot sifatidan tashqari, xarajat masalalari biznes egasini ko‘proq qiynaydi. Keyingi yillarda yurtimizda tadbirkorlarga bu borada berilayotgan imtiyozlar eksportyor korxonalar sonini oshirib, eksport geografiamizni bir necha barobar kengaytiradi.

Hatto chet davlatlarda savdo uylari va do‘konlarini ochishimizda davlat bevosita ko‘maklashyapti. Biz ham ana shu yordamdan foydalanib, Rossiya va Qozog‘istonda savdo uylarini ochdik. Yangi farmonda eksport bo‘yicha ko‘plab imtiyozlar nazarda tutilganini ko‘rib quvondik. Xususan, xalqaro bozorga chiqadigan milliy brendlarga 50 ming dollargacha subsidiya ajratilib, xorijdan brendmeykerlarni jalb qilish xarajatining yarmi — 500 ming dollargacha qismi qoplab beriladigan bo‘ldi. Xalqaro tenderlarda ishtirok etish uchun konsalting kompaniyalarini jalb qilish va tenderda qatnashish xarajatining 80 foizigacha bo‘lgan qismi ham qoplanadi. Bular shunchaki imtiyoz va yordam emas, balki davlatning tadbirkorga katta ishonchi, rag‘bati belgisidir.

Har gal Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti ana shunday amaliy natijaga o‘tishi isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanib bo‘lgan. Ya’ni farmonda keltirilgan nomenlar faqat qog‘ozda qolib ketmasligi, belgilangan muddatlardan boshlab hayotga tatbiq etilishini biznes egalaringning o‘zi ham yaxshi biladi. Endi asosiy masala imkoniyatlardan tadbirkorlarning qay darajada samarali foydalanishi va mas’ul tashkilotlarning mazkur kafolatlarni amalda ta’minlay olishidir.

Muhimi, mazkur farmon yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikka munosabatni yana bir bor aniq belgilab bermoqda: xususiy biznesga to‘siq qo‘yish emas, uning qonuniy faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan.



Abduvali XOLIQOV,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish va global
hamkorlik markazi direktori,
kimyo fanlari doktori, professor

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, ilm-fan va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni zamonaviy bilim va kasblarga o‘qitish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilanishi uning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi. Bunday yondashuv mehnat bozoridagi tekzor o‘zgarishlar sharoitida, ayniqsa, muhim.

Qamrovdan sifatga, sifatdan natijaga

So‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar yoshlarning bilim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirdi. Ayniqsa, oliy ta’limdagi o‘zgarishlar ko‘lami raqamlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. 1991-yilda O‘zbekistonda 52 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, bugungi kunda 205 taga, talabalar soni 1991/1992-o‘quv yilidagi 337,4 ming nafardan 1 million 600 mingga yetdi. Biroq qamrov kengayishi ta’lim taraqqiyotining yakuniy maqsadi emas. Bugun oldimizda yanada muhim savol turibdi: ularga qanday ta’lim beryapmiz va u inson hayotida qanday natija beryapti? Zero, ta’lim tizimi samarasi faqat talabalar yoki diplomlar soni bilan emas, balki bitiruvchi bilim va ko‘nikmalari, kasbiy salohiyati, mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va jamiyatdagi faolligi bilan belgilanadi. Shu bois, ta’lim

taraqqiyotining yangi bosqichi qamrovdan sifatga, sifatdan esa natijaga o‘tishni taqozo etmoqda. Endi zamonaviy mutaxassis o‘z sohasini chuqur bilishi, nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi, mustaqil va tanqidiy fikrlashi, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishi va o‘zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslasha olishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim sifatini baholash mezonlarini ham takomillashtirish talab etiladi. Oliy o‘quv yurti faoliyatini baholashda bitiruvchining real kompetensiyasi va keyingi natijalari ham muhim mezonga aylanishi lozim. “Talaba nimani o‘rgandi?”, “Nima qila oladi?”, “Olgan bilimi mehnat bozorida qanchalik talabga ega?” kabi savollar ta’lim sifatini baholashning markazida turishi zarur.

Universitet faqat bilim beruvchi muassasa emas

Bugun universitet tushunchasi ham zamon bilan birga o‘zgarmoqda. Ilgari tasavvurda universitet, avvalo, muayyan kasb bo‘yicha bilim va ko‘nikma beruvchi ta’lim muassasasi sifatida qaralgan bo‘lsa, bugun uning vazifalari ancha kengaydi. Zamonaviy universitet inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya, tadbirkorlik va jamiyat taraqqiyotini birlashtiruvchi intellektual markazdir. Yangi texnologiyalar, kasblar va mehnat shakllari juda tez paydo bo‘layotgan bir sharoitda universitet bitiruvchisini faqat mavjud bilimlar bilan qurollantirish yetarli bo‘lmaydi. U talabaga bilimni qayerdan olish, uni tahlil qilish va yangi bilim yaratish ko‘nikmasini ham berishi kerak. Ta’lim jarayoni talabani savol berishga, izlanishga, dalillarni solishtirishga, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashishga va asoslangan xulosa chiqarishga undashi lozim. Ayniqsa, sun‘iy intellekt, katta ma’lumotlar, robototexnika va avtomatlashtirishning jadal rivojlanishi

“Universitetning yana bir muhim vazifasi — ilm-fan va ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash. Zamonaviy ilmiy natijalar ta’lim jarayoniga kirib borganida talaba fanning bugungi holatini emas, istiqbolini ham anglay boshlaydi. Shu bois, professor-o‘qituvchining roli o‘zgarmoqda.



universitetlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Talaba raqamli vositalardan foydalanish bilan birga axborotning ishonchligini baholash, ma’lumotlar bilan ishlash va sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan mas’uliyati foydalanishni ham bilishi zarur. Shu bilan birga, ta’lim mazmuni mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni oldindan hisobga

olishi kerak. Buning uchun ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish, dual ta’limni rivojlantirish, talabalar amaliyotini mazmunan boyitish va qo‘shma ta’lim dasturlarini kengaytirish muhim.

Universitetning yana bir muhim vazifasi — ilm-fan va ta’lim o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash. Zamonaviy ilmiy natijalar ta’lim jarayoniga kirib borganida talaba fanning bugungi holatini emas, istiqbolini ham anglay boshlaydi. Shu bois, professor-o‘qituvchining roli o‘zgarmoqda. Universitetlar faoliyatini baholashda bitiruvchilar natijalari, ilmiy tadqiqotlarning amaliy ta’siri, innovatsion ishlanmalar, ish beruvchilar bilan hamkorlik va jamiyat taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissa kabi ko‘rsatkichlarga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Bu jarayonda tahlil va prognoz alohida ahamiyatga ega. Ya’ni universitet kelajakni oldindan ko‘ra oladigan va unga kadr tayyorlaydigan muassasaga aylanishi kerak.

Darslikdan raqamli ta’limgacha

Ta’lim sifati, avvalo, uning mazmunidan boshlanadi. Zamonaviy universitetda o‘quv dasturlari, o‘quv-uslubiy materiallar va ayniqsa, darsliklar zamon talablariga mos bo‘lishi lozim. Darslik shunchaki ma’lumotlar jamlanmasi bo‘lib qolmasligi kerak. U talabaning dunyoqarashi, kasbiy tafakkuri va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini

Sun‘iy intellekt bu borada yangi imkoniyatlar yaratmoqda. U talabaning bilim darajasini tahlil qilish, qiyin o‘zlashtirilayotgan mavzularni aniqlash, individual o‘quv materiallarini tavsiya etish va ta’lim natijalarini monitoring qilishda o‘qituvchi imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq texnologiya insonni almashtirish uchun emas, uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qilishi kerak. O‘qituvchi raqamli muhitda ham asosiy vazifasini — talabani mustaqil fikrlashga, izlanishga va bilimni tanqidiy baholashga o‘rgatish vazifasini saqlab qoladi. Bu jarayonda akademik halollik ham muhim. Sun‘iy intellektdan foydalanish tayyor javobni o‘zlashtirish emas, balki tahlil qilish, taqqoslash, dalillash va yangi g‘oya yaratishga yordam berishi kerak. Shu ma’noda, zamonaviy darslik, raqamli ta’lim va sun‘iy intellekt yagona ta’lim ekotizimining tarkibiy qismlaridir. Sifatli darslik — ishonchli bilim manbai, raqamli texnologiya — bilimga kirish imkoniyatini kengaytiruvchi vosita, sun‘iy intellekt esa ta’limni individuallashtirish va tahlil qilish imkonini beruvchi texnologiyadir.

Mustaqillikning 35 yili haqida so‘z borganida, mamlakatimizning eng katta boyligi bo‘lgan yoshlar masalasiga alohida to‘xtalish tabiiy. Chunki har qanday islohotning pirovard natijasi, avvalo, inson hayotida, uning bilim va salohiyatida namoyon bo‘ladi. Yosh inson o‘z bilimi mamlakat taraqqiyoti uchun zarur ekanini his qilishi, uning g‘oyasi qo‘llab-quvvatlanishi va mehnati munosib baholanishiga ishonishi muhim. Ana shunday muhit yoshlarning shaxsiy muvaffaqiyatini mamlakatning intellektual va innovatsion salohiyatiga aylantiradi. Shu bois, yoshlar siyosati va ta’lim siyosatiga yagona strategik maqsad — inson kapitalini rivojlantirish nuqtayi nazaridan qaralishi lozim. Kelgusi davrda ta’lim natijalarini iqtisodiyot, mehnat bozori va jamiyat ehtiyojlari bilan yanada kuchli bog‘lash muhim. Ta’lim mazmunini mehnat bozorining real va istiqbolli talablari asosida yangilash, nazariy bilim bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, pedagoglarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligini kengaytirish ustuvor vazifalar bo‘lib qoladi. Eng muhimi, ta’limning haqiqiy natijasi bilimli, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, innovatsion g‘oyalarga ega va mamlakat taraqqiyoti uchun mas’uliyatni his qiladigan insonni shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Bu bosib o‘tilgan taraqqiyot yo‘liga nazar tashlash, erishilgan natijalarni baholash va kelajak oldidagi mas’uliyatni yana bir bor anglash uchun muhim fursatdir. O‘tgan davrda mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Biroq taraqqiyot to‘xtamaydi. Dunyo tez o‘zgarmoqda, texnologiyalar yangilannmoqda, yangi kasblar paydo bo‘lmoqda, mehnat bozoriga qo‘yilayotgan talablar murakkablashmoqda. Bunday sharoitda ta’lim ham doimo harakatda, izlanishda va yangilanishda bo‘lishi kerak. Bu borada davlatimiz rahbarining “Endi davlatlar hududi bilan emas, bilimi bilan, aholi soni bilan emas, texnologiyasi bilan, tabiiy boyliklari bilan emas, inson kapitali bilan raqobatga kirishmoqda. Bilim, ilm-fan va tafakkur mahsuli bo‘lgan yangi “bilimlar iqtisodiyoti” hal qiluvchi kuchga aylanib bormoqda”, degan fikrlari bugungi taraqqiyotning mohiyatini juda aniq ifodalaydi.

INTELLEKTUAL TA’LIM PLATFORMASI

pedagogning kasbiy yo‘lboshchisi bo‘lishi mumkin



Habib ABDIYEV,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish instituti
prorektori

Bilim va texnologiya uyg‘unligi asosida inson salohiyatini rivojlantirish zamonaviy dunyo taraqqiyotining yetakchi omillaridan. Hayotimizning barcha sohalariga kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar sababli ta’lim manzarasi, xususan, maktabgacha

ta’lim sohasi ham yangicha yondashuvlar bilan takomillashmoqda. Zero, sohada qabul qilingan har bir qaror kelajak avlodning dunyoqarashi va shaxsiy rivojiga bevosita ta’sir qiladi. Shunday ekan, bugungi vazifa zamonaviy texnologiyalardan ta’lim sifatini oshirish, pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash va boshqaruv jarayonlarini yanada samarali tashkil etishda foydalanishdan iborat.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini raqamlashtirish, innovatsion axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish va ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida zamonaviy elektron ta’lim muhitini yaratish sohasida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi. O‘quv samaradorligini oshirish maqsadida kompyuter texnikasi, interaktiv panellar, multimedia vositalari, videotexnologiyalar va boshqa aqlli quрилmalar joriy etildi.

Institutda raqamli transformatsiya jarayoni nafaqat ta’lim oluvchilar, balki xodimlar mehnatini uyg‘unlashtirishga ham xizmat qilyapti. Jumladan, xodimlar faoliyatini aniq natijalar asosida baholash, mehnat

samaradorligini oshirish va ularni xodimning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish maqsadida KPI tizimi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda.

Shu bilan birga, ta’lim jarayonida metodik mahorat kuni va metodik mahorat soati darslarini zamonaviy raqamli formatda tashkil etish, elektron resurslardan foydalanish, mashg‘ulotlarni yozib olish va ulardan keyinchalik ta’lim jarayonida qayta foydalanish imkoniyatlari kengaytirilyapti. Bu yerda faoliyat yuritayotgan Jalilga markazi esa onlayn va gibrid mashg‘ulotlarni o‘tkazish, videodarslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim kontentini yaratishga moslashtirilgan texnik jihozlar bilan ta’minlangan.

Raqamlashtirishning asosiy maqsadi qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazishdan tashqari

ma’lumotlarni o‘rganish va puxta qarorlar qabul qilish uchun zarur sharoitni yuzaga keltirishni ham nazarda tutadi. Shu maqsadda institutda bir qator elektron platformalar hamda dasturiy yechimlar joriy etildi. Jumladan, ManagerPro, OnlineEdu, SKUD, BBIT va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlar orqali ta’lim jarayonlarini muvofiqlashtirish, tinglovchilar harakati haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, elektron hujjatlar bilan ishlash va zarur chora-tadbirlarni belgilash ishlari raqamli formatda amalga oshirilmoqda.

Ana shu jarayonlarning davomi sifatida institutda EKO-platforma (yagona raqamli ta’lim platformasi) loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Mazkur loyiha Islom taraqqiyot banki va UNICEF tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan tashabbus doirasida ishlab chiqilib, uning bosh maqsadi qayta tayyorlash, malaka oshirish va menejlerlik o‘quv kurslarini yagona elektron muhit orqali boshqarishga qaratilgan. Yaqinda

EKO-platforma uchun ishlab chiqilgan texnik topshiriq loyihasi UNICEF vakillariga taqdim etildi.

Yangi raqamli platformaning ustun tomoni shundaki, u faqat ma’lumot saqlaydigan elektron tizim bo‘libgina qolmay, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi hamda pedagogning kasbiy kamolot yo‘lini belgilashga ko‘maklashuvchi intellektual yordamchiga aylanishi ko‘zda tutilgan. Platforma orqali o‘qituvchining malakasi, tajribasi va kasbiy ehtiyojlari tahlil qilib, uning qaysi yo‘nalishlarda bilim va ko‘nikmalarini to‘ldirish ehtiyoji borligi aniqlanadi. Natijada malaka oshirish jarayonida har bir pedagogning individual ehtiyojlarini hisobga olgan zamonaviy yondashuv qaror topadi. U pedagog faoliyatini nazorat qilishdan ko‘ra uning kasbiy mahoratini va ish natijadorligini yuksaltirishga xizmat ko‘rsatadigan yangi avlod ta’lim modeli sifatida shakllantiriladi.

Raqamli texnologiyalarning mohiyati inson tajribasi va bilimlarini amaliy qiymatga aylantirishdan iborat. Shu sababli platforma pedagog faoliyatining ijodiy izlanishlarini rag‘batlantiradigan, mehnat jarayonlarini yengillashtiradigan va kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradigan raqamli yechimga aylanishi lozim. Bu jihatdan intellektual ta’lim platformasi pedagogning kasbiy yo‘lboshchisi bo‘lishi mumkin.

Unda o‘qituvchining malakasi, tajribasi, o‘quv ehtiyojlari va kelgusi kasbiy rejalariga haqidagi ma’lumotlar inobatga olinib, unga mos tavsiyalar beriladi. Masalan, qaysi yo‘nalishda bilimni oshirishi kerakligi, qaysi kurslar ko‘proq foyda keltirayotgani va qanday metodik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdigi raqamli tizim orqali aniqlanadi. Bunday yondashuv malaka oshirish makonida shaxsiy rivojlanish tamoyillarini kuchaytirishi shubhasiz.

Raqamli platformaning yana bir muhim vazifasi ta’limdagi muammolarni aniqlash, ularning ehtimoliy rivojini baholash va tegishli choralarni belgilashga asos bo‘lishidir. An’anaviy yondashuvda ko‘pincha muammo yuzaga kelgandan keyin uni bartaraf etish choralari ko‘riladi. Raqamli tizimlar esa to‘plangan ma’lumotlarni qayta ishlash orqali kelgusi yo‘nalishlarni belgilash, ehtimoliy o‘zgarishlarni oldindan baholash uchun asos yaratadi.

Masalan, qaysi hududlarda pedagoglarga ehtiyoj ortishi, qaysi yo‘nalishlarda qo‘shimcha malaka oshirish kurslariga talab yuqoriligi va qaysi metodik yondashuvlar ijobiy natija berayotganini oldindan bilish mumkin. Ana shu yondashuvdan kelib chiqib, platformaning keyingi taraqqiyot bosqichi uni maktabgacha ta’lim sohasining yagona raqamli ekotizimiga aylantirish bilan bog‘liq. Buning uchun malaka oshirish tizimi, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, hududiy boshqaruv organlari va boshqa davlat axborot resurslari bilan bosqichma-bosqich integratsiyani ta’minlash talab etiladi.

Shuningdek, yagona ta’lim platformasi kelajakda sohaning o‘ziga xos “aqlli kutubxonasi” vazifasini bajarishi, sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari bilan boyitilishi ko‘zda tutilgan. Demak, raqamli transformatsiya orqali biz bugungi ta’lim jarayonlarini oqilona boshqarish bilan birga kelajak ta’limining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatamiz.

Shu sababli maktabgacha ta’lim sohasida raqamli transformatsiyaning ustuvor vazifasi texnologik yechimlarni joriy etish bilan bir qatorda inson omili va kasbiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Chunki ta’limning eng katta tayanchi baribir inson — pedagog, rahbar va ta’lim ishtirokchilari. Raqamli vositalar esa pedagoglarga ish jarayonidagi ortiqcha sarnfi qisqartirish, zarur bilimlarni tekzor o‘zlashtirish va kasbiy mahoratini izchil boyitib borish uchun qo‘shimcha resurs vazifasini o‘taydi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, raqamli transformatsiya maktabgacha ta’lim tizimi kelajagini belgilaydi. Mazkur raqamli platforma esa sifati ta’lim, intellektual pedagog va samarali boshqaruv sari yetaklovchi muhim strategik poydevorga aylanadi.



Mulohaza

MUSTAQILLIGIMIZ HAR SOHADA ERISHAYOTGAN YUTUQLARIMIZ BILAN MUSTAHKAMDIR

Mustaqillik bayramini yurtimiz hayotidagi ramziy oraliq marraga qiyoslagim keladi. Zero, istiqlol shukhi kezib yurgan kunlarda kattayu kichik mustaqillik tuhfa etgan ne'matlarni sarhisob qiladi, kelajak haqida mushohada yuritib, yangi rejalar tuzadi.



So'zni hayotimizning moddiy jihatlaridan boshlar ekanman, urg'uni shunchaki raqamlarga emas, balki 35 yil ichida davlat va jamiyatning qanday o'zgariganiga qaratgan bo'lardim. Albatta, faxrlanish tuyg'usini uyg'otuvchi yutuqlarni o'zida mujassam etgan iqtisodiy ko'rsatkichlar oz emas. Biroq mustaqillik yillarida erishilgan eng muhim natija mohiyatini ifodalovchi voqeik sifatida shunchaki iqtisodiyot hajmi o'sishini emas, balki xalqimiz iqtisodiy tafakkurida tobora yaqqolroq ko'rinayotgan fundamental o'zgarishlarni e'tirof etgan bo'lardim. Fikrimcha, O'zbekistonning eng salmoqli iqtisodiy yutug'i, avvalo, iqtisodiyotga munosabat jadval yangilanib borayotganida namoyon bo'ladi. Bu davlat korxonasi va davlat buyurtmasi ustuvor bo'lgan modeldan xususiy tashabbus, sog'lom raqobat, investitsiya, eksport hamda xizmatlar hal qiluvchi o'rin tutadigan iqtisodiyot sari sobiqadamlilik bilan harakatlanayotganimiz hosilasidir.

Har qanday iqtisodiy yutuqning asl qiymati uning xalq turmushida nechog'liq aks etayotgani bilan belgilanadi. Shu ma'noda, yurtimizdagi eng hayotiy ijtimoiy loyihalardan biri sifatida kambag'allikni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarga diqqat qaratmoqchiman. Bu boradagi sa'y-harakatlar mohiyati kambag'allikni bir martalik ijtimoiy yordam ko'rsatish orqali yumshatishdan mazkur muammoni uzil-kesil va tizimli hal etishni ko'zlagan davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Endilikda kambag'allikni faqatgina nafaqa yoki moddiy ko'mak tarqatish yo'li bilan emas, balki ehtiyojmand qatlarni barqaror daromad manbalariga olib chiqish ustuvor vazifaga aylandi. Sodda aytganda, kambag'allikni qisqartirish shunchaki pul berish emas, insonning muhtoj bo'lib qolmasligi uchun zarur imkoniyat va sharoitlar yaratishdir degan qarash qat'iy qaror topmoqda.

"Inson qadri uchun" ezu tamoyiliga asoslangan bugungi davlat siyosatining hayotiy ko'rinishlari haqida o'yalar ekanman, uning aniq o'lchovi nimada degan savol xayolimdan kechadi. Darhaqiqat, bu g'oya quruq shior bo'lib qolmay, har bir yurtdoshimiz hayotida qanday tatbiq etilayotganini qanday mezonlar bilan aniqlash mumkin? Tub mohiyati yaxshilikka yo'g'rilgan mazkur tamoyilning amaliy ifodasi nimalarda namoyon bo'lmoqda? Ushbu savollarga javob izlar ekanman, mustaqillikdan keyin o'tgan davr mobaynida qancha insonning turmushi yaxshilangani xotiramda jonlandi. Istiqlol sharoitlari bilan davlatning ijtimoiy muammolarga e'tibori muntazam kuchayib borayotganiga ishonchim yanada mustahkamlanadi.

Davlatimizning so'nggi yillarda ijtimoiy sohada amalga oshirgan eng katta infratuzilimaviy loyihasi inson kapitalini rivojlantirishdir desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugun yaqqol ko'zga tashlanayotgan ushbu voqeik bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bunda yoshlar tarbiyasi, ta'lim sifatiini oshirish, ilm-fanni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni puxta egallash va xorijiy tillarni o'rganishni rag'batlantirish kabi masalalarga alohida urg'u qaratilayotgan yurtimiz kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi. Buning tarixiy ahamiyati beqiyosdir, zero, 35 yillik mustaqil taraqqiyot davrida kamol topgan navqiron avlod bugun jamiyatning eng faol qismiga aylandi. Demak, istiqlolimizning bosh mevasi erkin fikrl, el-yurtiga sadoqatli yoshlar yetishib chiqqanida ham namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mustaqillik yillarida to'plangan eng qimmatli sarmoya oltin zaxiralari emas, o'z kelajagini boshqa birov belgilab

Zohidullo MUNAVVAROV, siyosiy fanlar doktori, professor

berishini kutmaydigan ilmiy va tashabbuskor avlodning voyaga yetganidir degim keladi. Mustaqillik yillarida tashqi dunyo bilan aloqalar ham tubdan o'zgardi. Bu ulkan natijaning asl mohiyati ko'pincha keng jamoatchilik uchun mavhum bo'lib tuyuladigan rasmiy diplomatik bayonotlar pardasi ortida qolib ketadi. Yoshi ulug' yurtdoshlarimiz bundan 35 yil oldin mustaqillik tushunchasi, eng avvalo, "o'zimizga xos yo'limiz bor", degan yopiqroq qarash bilan ifodlanganini yaxshi eslaydi. So'nggi yillarda to'plangan tajribaga asoslanib esa bugun mustaqillikni mutlaqo yangicha ta'riflash mumkin: Mustaqillik dunyodan



“

Poytaxtimizda barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi kabi yirik ilmiy-ma'rifiy majmualar alohida ahamiyatga egadir. Bu kabi institutlar tarixiy merosni shunchaki saqlab qolish bilan cheklanmasdan, uni bugungi avlod uchun jonli ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy manbaga aylantirishga xizmat qilmoqda.

uzilib qolish emas, balki milliy manfaatlarini chuqur anglagan holda jahon hamjamiyati bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik qila olish mahorati. Bugungi ekspart ko'rsatkichlari, xorijiy investitsiyalar oqimi, mintaqaviy va xalqaro ochiq hamkorlik siyosatini aynan shu qarash orqali tushuntirish mumkin. Xalqaro valyuta jamg'armasi ham O'zbekistonda 2017-yildan boshlangan liberalashtrish jarayonlari va izchil islohotlarni milliy iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida yuqori baholamoqda.

Bosib o'tilgan tarixiy yo'lga nazar solar ekansiz, qo'lga kiritilgan ibratli yutuqlar bilan birga, hali o'z yechimini kutib turgan masalalar ham anchagina ekaniga amin bo'lasiz. Jumladan, ta'lim sifatiini ilg'or xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, ish

o'rinlari samaradorligini ta'minlash, sud-huquq tizimiga ishonchni yanada mustahkamlash, tobora keskinlashib borayotgan ekologik muammolarga samarali yechim topish, energetika va suv ta'minatini izchil yaxshilash kabi uzluksiz diqqat talab etuvchi muhim vazifalar ko'z oldimizda gavdalanadi. Bu kabi masalalar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Shu haqda mushohada yuritir ekansiz "Ha, 35 yilda ulkan masofa bosib o'tildi, biroq oldimizda hali katta vazifalar turibdi va endi rivojlanishning sifat ko'rsatkichlari haqida qayg'u urish fursati keldi", degan mantiqiy xulosaga kelishingiz tabiiydir.

O'zbekiston zaminini azal-azaldan jahon sivilizatsiyasining eng muhim beshiklaridan biri bo'lib kelgan. Bu muqaddas hududda ilm-fan, falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya va islom ilmlari kabi qator sohalarda benazir ilmiy maktablar qad rostlagan. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy singari buyuk daholar qoldirgan olamshumul meros milliy g'ururimizning so'nmas manbai bo'libgina qolmay, O'zbekistonning jahon tamaddunidagi tarixiy o'rmini belgilab beruvchi mustahkam intellektual tayanch ekanini tobora chuqur idrok etilmoqda. Shu jihatdan ilmiy-madaniy merosga qaratilayotgan e'tibor milliy o'zlikni anglashning tabiiy hamda zarur tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Mazkur jarayonning muhim xususiyati shundaki, intellektual xazinani tadqiq etish va keng targ'ib qilish endilikda faqat ayrim ilmiy yoki madaniy tashkilotlar doirasidagi tor faoliyat bo'lib qolmasdan, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotgan umummilliy harakat maqomini oldi. Xususan, tarixiy obidalarini qayta tiklash, noyob qo'lyozma va manbalarni o'rganish, buyuk allomalimiz merosini xalqaro maydonda keng targ'ib qilish, davr talabiga mos ilmiy-tadqiqot va madaniy markazlarni tashkil etishga qaratilgan amaliy qadamlar milliy xotira hamda o'zlikni anglashning institutsional poydevorini yanada mustahkamlamoqda. Shu ma'noda, poytaxtimizda barpo etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi kabi yirik ilmiy-ma'rifiy majmualar alohida ahamiyatga egadir. Bu kabi institutlar tarixiy merosni shunchaki saqlab qolish bilan cheklanmasdan, uni bugungi avlod uchun jonli ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy manbaga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cair: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-946. 29323 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

YANGI O'ZBEKISTON

yuz_official

35 YIL

Inson qadri uchun

Davlatimiz rahbari 35 yil davomida mamlakatimizda qilingan ishlar ko'lamiga baho berar ekan, tarix oldida qisqa muddat bo'lgan bu davr o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra asratigulik ahamiyat kasb etishiga alohida urg'u berdi. Zero, har qanday mamlakatning kuch-qudrati faqat yer osti boyliklari yoki yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlari bilan emas, balki xalqning o'z tarixiga, kuchiga va tanlagan yo'lga mustahkam ishonchi bilan o'lchanadi.

XALQ VA DAVLAT UYG'UNLIGI — KELAJAK TARAQQIYOTI



Pardaxol NORQOBILOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul xodimi

O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatidagi olamshumul tarixiy voqealar tufayli mamlakatimiz dunyoga keng ochildi. Geosiyosiy ziddiyatlar avj olayotgan bir davrda davlatimizning ochliklik va yaxshi o'q'shinchilik siyosati tufayli Markaziy Osiyodagi ko'p yillik chegara muammolari hal etildi. Mintaqamiz endi nizolar o'chog'i emas, balki do'stlik, hamkorlik va hamjihatlik makoni sifatida dunyoga namuna bo'lmoqda. Mamlakatni jahonga keng ochish yuksak siyosiy jur'at va uzoqni ko'ra bilish mahoratini talab qiladigan strategik qaror edi. Yillar davomida yopiq bo'lgan hududni do'stlik va hamkorlik makoniga aylantirish oson kechmadi. Bu, avvalo, ichki islohotlarni jadallashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish hamda qo'shilar bilan ochiq muloqot yo'lini tanlashni taqozo etdi. Natijada O'zbekiston butun mintaqada barqarorlik va taraqqiyot markazi sifatida e'tirof etilmoqda.

Ilgari iqtisodiyotimizga yiliga 2-3 milliard dollar xorijiy investitsiya kiritilgan bo'lsa, bugunga kelib jalb qilinayotgan chet el sarmoyasi 40-50 milliard dollari tashkil etmoqda. Yurtimizga investitsiyalar bilan birga ilg'or texnologiyalar, zamonaviy bilimlar va yangi iqtisodiy imkoniyatlar kirib kelmoqda.

Global logistikadagi uzilishlar va dunyodagi notinch vaziyatga qaramay, yalpi ichki mahsulot hajmini izchil oshirish orqali O'zbekistonning daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin olishi ko'zda tutilgan. Bu darajadagi yuksak natijalarga aynan xalqimizning fidokorona mehnati, intellektual salohiyati hamda millat va davlat birdamligi tufayli erishilayotganini har bir yurtdoshimiz qalban his etmoqda.

So'nggi yillarda 650 mingdan ziyod oilaning yangi uy-joyga ega bo'lgani har bir inson manfaati va ijtimoiy himoyasi amalda kafolatlanayotganidan dalolat beradi.

Bugun eng chekka va chegara hududlardagi qishloq hamda mahallalarimizga ham yangi O'zbekiston

nafasi va yangicha qiyofasi kirib bormoqda. Birgina misol: Surxondaryo viloyatining eng chekka hududlaridan bo'lgan Oltinsoy tumanidagi Mo'minqul mahallasi tubdan yangilanib, ko'chalari tekislandi va asfaltlandi. Elektr energiyasi hamda tabiiy gaz ta'minotidagi uzilishlar bartaraf etildi. Ko'chalarga yoritqichlar o'rnatilib, aholi uchun namunali tibbiy va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Yurtimizda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mutlaqo yangi tajriba joriy etildi. Natijada kambag'allik darajasi 2017-yildagi 35 foizdan bugun 4 foizga tushdi. Ehtiyojmand oilalarning daromadini oshirish, kasbga o'qitish, salomatligini mustahkamlash va yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan mahallabay ishlash tizimi samara berib, 10 milliondan ortiq insonning turmush sharoiti yaxshilandi.

egallamoqda. Xususan, tariximizda ilk bor futbol bo'yicha milliy terma jamoamiz jahon chempionati yo'llanmasini qo'lga kiritgani butun xalqimizga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishladi.

Bugun erishilayotgan ulkan o'zgarishlarning haqiqiy egasi va ijodkori sifatida davlat tizimi emas, aynan fidoyi, mehnatkash va olijanob xalqimiz e'tirof etildi. Mana shu nuqtada "Xalq va davlat uyg'unligi" tushunchasi aslida qanchalik hayotiy va muhim ekanini ayon bo'ladi. Davlat — xalqqa xizmat qiluvchi tuzilma, xalq esa taraqqiyotning asl manbai va yagona mezonidir.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, kelgusi o'n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo'ladi. Buni faqat va faqat xalqimizning aql-zakovati, mehnati va birdamligi orqali o'zimiz bunyod etamiz. Ushbu ezuq maqsad yo'lida yurtimizda inson qadriini ulug'lashga xizmat qiladigan



Bu kabi islohotlar ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimizda aholi soni 8 millionga ko'paygan bo'lsa-da, maktabgacha ta'lim qamrovi 78 foizga yetkazildi va maktablarda 1,5 million qo'shimcha o'quvchi o'rni ochildi. Oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar soni 1 million 600 mingga yetdi. Eng muhimi, ularning 50 foizdan ortig'i xotin-qizlardir.

Aholi genofondini saqlash va inson kapitalini rivojlantirishning muhim yo'nalishi bo'lgan sog'liqni saqlash sohasidagi ijobiy o'zgarishlar natijasida qo'shdaklar va onalar o'limi 4 baravar kamaydi. Xalqimizning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi ilgargi 66,4 yoshdan 75,4 yoshga ko'tarildi. Bu esa yurtdoshlarimizning o'rtacha umri 9 yilga uzayganini anglatadi.

Prezidentimiz ertangi kunimizni hal qiluvchi kuch bo'lgan yoshlar va xotin-qizlar siyosatiga ham alohida to'xtalib o'tdi. Bugun yurtimizdagi tadbirkorlarning har uch nafaridan birini yoshlar tashkil etmoqda. O'g'il-qizlarimiz millatni birlashtiruvchi buyuk kuch sifatida xalqaro maydonlarda ham yuqori marralarni

"Yuksalishning yetti milliy dasturi" hayotga tatbiq etilmoqda. Bu — yangi O'zbekiston taraqqiyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiquvchi yaxlit strategik tizim hamda Uchinchi Renessans poydevorini qurishning aniq "yo'l xaritasi".

Oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun xalq va davlat yagona maqsad atrofida birlashishi shart. Xalq va davlat uyg'unligi amaliy siyosatning o'zagi va mazmun-mohiyatini belgilovchi qudratli harakatdir. Davlat dasturlari qanchalik puxta ishlab chiqilmasin, agar ular xalqning real ehtiyojlari va orzu-umidlari bilan uyg'unlashmasa, kutilgan samara bermaydi. Ijodiy kuchi va fidokorona mehnati davlat tomonidan to'g'ri yo'naltirilsa, xalq buyuk marralarni egallaydi.

Mustaqilligimizning kelgusi yillarida ham xalq bilan davlatning qo'lni qo'lga berib, bir yoqadan bosh chiqarib ish ko'rishi yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi. Vatanimiz tinchligini saqlash, farovon hayot bopar etish va Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashga har birimiz mas'ulmiz.